



UO'K: 811.512.133'37-26

Abdumannon HASANOV,
O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, f.f.d
E-mail: abdumannonhasanov3137@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, f.f.d. B.Mengliyev taqrizi asosida

TILDA PAYDO BO'LADIGAN YANGI SO'ZLARNING ADABIYLASHUV IMKONIYATLARI

Аннотация

Bu maqolada o'zbek tili leksikasini boyitish imkoniyatiga ega bo'lgan birliklarning adabiy til leksikoniga o'tishi haqida mulohazalar bildirilgan. Adabiy tilda o'z nomiga ega bo'lmagan tushunchalarni nomlash imkoniyatiga ega bo'lgan so'zlarning noadabiy qatlamdan saralab olinishi, tavsiflanishi va ilmiy asoslanishi, shu asosda adabiy lashtirish (lug'atlarga kiritish) bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola so'ngida shu tarzda o'rganishlar natijasida til ichki imkoniyatlari asosida hosil qilinadigan so'zlarni muntazam o'rganish, tavsiflash va eng saralarini me'yoriy lug'atlarga kiritish bo'yicha tizimli ishlar qilinishi kerakligi ta'kidlangan.

Key words: Tushunchani nomlash, so'zni adabiy lashtirish, adabiy me'yor, dialektizm, so'zning til leksikonida barqarorlashishi, hammaboplik.

ВОЗМОЖНОСТИ ПОЯВЛЕНИЯ НОВЫХ СЛОВ В ЯЗЫКЕ ДЛЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается переход единиц, имеющих потенциал обогащения лексики узбекского языка, в лексикон литературного языка. Разработаны рекомендации по отбору, описанию и научному обоснованию слов из нелитературного слоя, которые могут называть понятия, не имеющие собственных наименований в литературном языке, и на этой основе по их литературоведческой деятельности (включению в словари). В заключение статьи подчеркивается необходимость проведения систематической работы по систематическому изучению, описанию и включению в нормативные словари лучших слов, полученных в результате таких исследований, исходя из внутренних возможностей языка.

Ключевые слова: Наименование понятия, литературоведческая реализация слова, литературная норма, диалектизм, стабилизация слова в лексиконе языка, универсальность.

POSSIBILITIES OF NEW WORDS APPEARING IN THE LANGUAGE FOR LITERARY FORMATION

Annotation

This article presents considerations on the transition of units that have the potential to enrich the lexicon of the Uzbek language to the literary language lexicon. Recommendations are developed on the selection, description and scientific substantiation of words from the non-literary layer that have the potential to name concepts that do not have their own names in the literary language, and on this basis, on their literaryization (inclusion in dictionaries). At the end of the article, it is emphasized that systematic work should be carried out to systematically study, describe and include the best words formed based on the internal capabilities of the language as a result of such studies.

Key words: Naming a concept, literaryization of a word, literary norm, dialectism, stabilization of a word in the language lexicon, universality.

Kirish. Har bir xalq o'z tarixi, madaniyati va taraqqiyotini o'z qo'li bilan bunyod etadi. O'zga millatdan farqlanib turishiga va o'zligini anglashga xizmat qiluvchi ona tilining rivojlanishi va taraqqiyotini ta'minlash ham shu xalqning eng muhim va birlamchi vazifalaridan biridir. Zero, muayyan xalqning betakrorligini, o'ziga xosligini ko'rsatuvchi til, madaniyat, urf-odat va qadriyatlarning yaratilishi, saqlanishi, rivojlanishi shu xalqning umummilliy faoliyatiga bog'liq. Tarix saboqlaridan shu narsani anglab yetgan o'zbek xalqi ham o'z madaniyatini, xususan, tilini imkon qadar sof saqlashga, tafakkur va madaniyat rivojiga hamohang ravishda rivojlantirishga harakat qilmoqda [1]. Bu sa'y-harakatlar ancha salmoqli bo'lsa-da, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga, xususan, yangi-yangi paydo bo'layotgan tushunchalarni nomlashga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa mazkur masalaga oid tadqiqotlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Mazkur ehtiyojning barcha tillarda borligi mazkur masalaning muhim va dolzarb ekanligini tavsiflaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ham muayyan tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda ichki imkoniyatlardan foydalanish lozimligi dunyoning aksar tilshunoslari tomonidan e'tirof etilmoqda. Aksar tillarda adabiy tilning shakllanish jarayonlarida uning ichki imkoniyatlar asosida tizimlashtirilishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Chunonchi, leksik tizimning xalq shevalari va so'zlashuvga xos birliklar hisobidan, shuningdek, tildagi so'z yasash tizimi imkoniyatlari asosida boyitilishiga e'tibor berish turli tilshunoslik maktablarining diqqat markazida bo'lgan. Masalan, dunyo tilshunosligida A.Orudjev [2], L.Skvorsov [3], A.Kaydarov [4], Sh.Sat [5], L.Beznosikova [6] kabi olimlar milliy adabiy tilning shakllanishi, uning til ichki imkoniyatlari asosida muntazam boyib borishini tegishli tillar leksik tizimini tahlil qilish orqali tavsiflashga harakat qilishgan. O.Ladiso'va esa til va shevalar leksikasida ayrim bo'shliqlar muqarrar ekanligini izohlab, bu bo'shliqlarni tilning mavjud imkoniyatlari asosida tezroq to'ldirish kerakligini aytib o'tgan [7]. Dunyo tilshunosligida bu kabi

tahliliy kuzatishlar o'tgan asrda ancha ommalashgan. Buning natijasida til leksikasi rivojiga ta'sir etuvchi turli omillarni tavsiflashga va ularni maqsadga muvofiq yo'naltirishga harakat qilingan. So'nggi davrda ham yangi tushunchalarni nomlash bilan bog'liq masalalarga dunyo tilshunosligida jiddiy diqqat qaratilmoqda. Bunda tilshunoslar tegishli tushunchani nomlash jarayonlarini reprezentativ nutq ko'rinishlari misolida tahlil etishga intilmoqda.

So'nggi yillarda milliy tilshunosligimizda ham til leksikasining keyingi davrdagi o'zgarishlari, rivojlanishi, xususan, ichki imkoniyatlar asosida boyish jarayonlari haqida N.Mahmudov, A.Madvaliyev, Y.Odilov, H.Dadaboyev kabi olimlarning ham tadqiqotlari yuzaga keldi. Bu boradagi yangicha yondashuvlar ayrim tadqiqotchilar tomonidan ham ilgari surilmoqda. Shunday tadqiqotlarning biri F.Musayevaning "Lakuna hodisasi va uni bartaraf etishda sheva leksikasining ahamiyati" nomli maqolasida sheva so'zlarining adabiy til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatlari tahlil qilingan [8]. Tadqiqotchi o'zbek shevalarining maishiy va urf-odatlar bilan bog'liq ko'pgina so'zlarini adabiy til leksikasi uchun ahamiyatli deb baholaydi va ularni me'yoriy lug'atlarga kiritishni tavsiya etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tildagi leksik bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirishda eng maqbul yondashuv tilning turli nutqiy shakllari (ko'rinishlari)ni leksik tahlil qilish va shu orqali tegishli bo'shliqlarni to'ldirishdir. Bunda, birinchi navbatda, turli nutqiy vaziyatlarda qo'llangan lug'aviy birliklarni to'plash (kartoteka tuzish) va ularning adabiy til leksikasining me'yoriy lug'ati – "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kiritilgan yoki kiritilmaganligini aniqlash lozim [9]. Mazkur tahlilda ko'pgina so'zlarning adabiy til leksikasida mavjudligi qayd etiladi. Shundan so'ng adabiy til leksikasiga kiritilmagan so'zlar ustida saralash amali davom ettiriladi. Mazkur saralangan so'zlarning adabiy tildagi tegishli leksik bo'shliqning ifodachisi bo'la olishi yoki bo'la olmasligini baholash ishning eng mas'uliyatli va murakkab qismidir. Tahlil qilinadigan so'zlarning adabiy tilda muqobili (ma'nodoshi) bor-yo'qligini tekshirish keyingi bosqichda bajariladigan muhim vazifalardan biridir. Mazkur tekshiruv jarayonida tegishli tushunchaning adabiy tilda semantik usulda (muayyan so'zning biror sememasi sifatida) nomlanmaganligini ham jiddiy tekshirish lozim [10]. Agar tahlil qilinayotgan so'zning ma'nosi biror ibora yoki tasviriy ifoda bilan nomlangan bo'lsa, demak, uni leksik bo'shliqni to'ldiruvchi so'z sifatida baholash noo'rin. Keyingi bosqichda saralangan so'zlarning o'zbekcha (til ichki imkoniyatlari asosida shakllangan)ligiga, tegishli tushunchaning munosib nomi ekanligiga diqqat qaratiladi. "G'alvirlash" jarayonining so'nggi bosqichida saralangan so'zlarning ahamiyatlilik darajasi va adabylashuv imkoniyatlari o'rganiladi. Ularning eng ahamiyatliliklari va imkoniyatliliklari tegishli leksik bo'shliqning to'ldiruvchisi sifatida adabiy til leksikasiga kiritilish uchun tavsiya etiladi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilida paydo bo'layotgan va til leksikonida barqarorlashayotgan birliklarni quyida tavsiflashga harakat qilamiz.

-lik qo'shimchasi o'zbek tilida mahsulдор ot yasovchi affikslerden biri. Shu qo'shimcha yordamida yasalgan noqulaylik so'zi adabiy tildagi tegishli leksik bo'shliqni to'ldirish zaruratidan shakllangan. Yo'lda ta'mirlash ishlari olib borilmoqda: noqulayliklar uchun uzr so'raymiz kabi gaplarda tegishli tushunchani aniq va munosib ifodalaydigan bu so'zni alohida leksema sifatida lug'atlarda qayd etish foydadan xoli emas.

Boshqaruvchilik, iqtiboslilik kabi so'zlar -lik qo'shimchasining muayyan yasalmalardan yangi so'z hosil qilishini ko'rsatuvchi birliklardir. Bu so'zlar bugungi kunda ot so'z turkumiga xos umumqo'llanishga o'tayotgan so'zlardan.

Xususan, boshqaruvchilik so'zi rahbar va yetakchilar uchun zarur bo'lgan muhim xususiyatni nomlaydi. Iqtiboslilik so'zi esa bu so'zlarga qaraganda kamroq qo'llanadi. Biroq u ilmiy matnlarning o'ziga xos belgisi sifatida hatto ommabop adabiyotlarda ham qayd etilmoqda.

Bugungi kunda OAV nutqida an'anaviylik, hisobdorlik, hissadorlik, manfaatdorlik, to'liqlik, vorisiylik kabi so'zlar ham faol istifoda etilmoqda. Ularning tez-tez quloqqa chalinayotganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ko'pchilikka yaxshi tanish va tushunarli bo'lgan bu so'zlarni ham adabiy til birligi sifatida tan olish va ommalashtirish lozim. Binobarin, ular bugungi nutqimizda faol qo'llanayotgan birliklar sirasiga kiradi.

Milliy madaniyatimizda buyuk shoirlar asarlari mutolaasi va mushoirasiga bag'ishlangan tadbirlarni uyushtirish ko'p asrlik tarixga ega. Bu tadbirlar yoshlarni, adabiyot muxlislarini badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirishda muayyan ahamiyatga ega, albatta. Shu bois bunday tadbirlar bugungi kunda ham o'tkazib kelinmoqda. Bizningcha, mazkur tadbirlar (va ular nomlari) orasida eng ommaboplarini yanada ommalashtirish maqsadga muvofiq. Bunday tadbirlarning uyushtirilishi yoshlarning mumtoz adabiyot va san'atga bo'lgan mehri yuksalishiga xizmat qiladi. Buning uchun, avvalo, mazkur tadbirlarning nomi bo'lgan navoiyxonlik, boburxonlik kabi so'zlarni adabiy til birligi sifatida e'tirof etish joiz.

Dastlabki qo'llanishlarida ilmiy va publitsistik (ommabop) uslubga xos bo'luvchi yangi so'zlarni yasashda faol qo'llanayotgan qo'shimchalardan biri -lashtir qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha -lash qo'shma affiksi va -tir nisbat shakli yasovchisining birikuvidan hosil bo'lgan [11]. Mazkur qo'shimcha asosida hosil qilingan adabylashtirmoq, alohidalashtirmoq, budjetlashtirmoq, davrlashtirmoq, kinolashtirmoq, naqdlashtirmoq, soddalashtirmoq, tijoratlashtirmoq kabi so'zlar bugungi kunda OAVda ancha faollashib qoldi va tegishli sohalarida keng istifoda etilmoqda. Xuddi shu qo'shimchaga o'xshash -lantir affiksi ham bugungi kunda ko'plab yangi yasalmalar hosil qilishda qo'llanmoqda. Ayni qo'shimcha yordamida hosil qilingan akslantirmoq, jonlantirmoq, rivojlantirmoq, shakllantirmoq kabi so'zlar ham adabiy tilda o'z ifodachisi bo'lmagan leksik bo'shliqlarni nomlash ehtiyojidan yuzaga kelgan. Ularni ham adabiy til birligi sifatiga tan olish foydadan xoli emas.

Kompozitsion usulning keng qo'llanishli va faol usul sifatida joriylanishida o'ziga xos qulayliklari va imkoniyatlari mavjud: kompozitsion usulda yasalgan yangi so'zlar til egalari osongina tushuniladi. Chunki ular til egalari ma'lum bo'lgan ikkita (yoki undan ortiq) so'zning birikishi va yaxlit yangi ma'no kasb etishidan shakllanadi. Shuningdek, mazkur usulda yasalgan birliklar so'z birikmalari kabi tegishli tushunchalarni yetarli darajada aniq va mos nomlash imkoniyatiga ham ega.

Kompozitsion yasalmalar orasida ot + ot = ot qolipi asosida hosil qilingan ayronxalta, kultepa, nonpalov, xamirtog'ora, shohbekat, qozonsochiq, qumqayroq, temirqoziq kabi ko'pgina so'zlar bugungi kunda turli nutq jarayonlarida faol qo'llanmoqda. Bizningcha, mazkur so'zlar ham o'zlari ifodalayotgan tushunchaning nomi sifatida tilda keng ommalashishga va barqarorlashishga haqli.

Xususan, nonpalov nomli taom ko'pgina o'zbek oilalari uchun tanish ovqat. Bu taom biroz qotgan (suvi qochgan) yoki yopilganiga (tayyorlanganiga) ancha vaqt bo'lgan nondan tayyorlanadi (ma'lumki, non uzoq vaqt saqlansa, qotadi, mog'orlaydi). Bu taomning asosiy komponenti non bo'lgani uchun u juda to'yimli va mazali ovqat hisoblanadi. Ushbu taom nomi bo'lgan va ko'pchilikka tushunarli nonpalov so'zi adabiy tilning me'yoriy lug'atlariga kiritilishga munosib so'zlardan biridir.

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra o'zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini tavsiflovchi indikator - "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga so'nggi yillarda ommalashgan ayrim birliklar kiritildi. Bu o'zgarishlarni yaqqol kuzatish uchun "A" harfi bilan boshlanuvchi so'zlarning so'nggi (2022-yildagi) nashrga kiritilganlarini (oldingi nashrlarga qiyosan) e'tiboringizga havola qilamiz: ajdarsifat [12], ajinabuta (b.65), ajriqbosh (b.68), arabzabon (b.129), arslonquloq (b.141), assalomalaykum (b.161), atir-upa (b.167), ayiqquloq (b.192), ayiqo't (b.192), ayritayoq (b.201), ayg'irqiyoy (b.205), angishvonagul (b.220), a'lonav (b.222). Bu so'zlardan tashqari akvapark (b.77), akvabog' (b.77), audiodarslik (b.171), audiofayl (b.171), audiokasseta (b.171), audiokitob (b.171), audiomatn (b.171), audiopleyer (b.171), audiovizual (b.171), aviabozor (b.174), aviahalokat (b.174), aviakerosin (b.174), aviakorxona (b.174), avialayner (b.174), aviatashuv (b.175), aviaqatnov (b.175), avtobekat (b.180), avtogol (b.180), avtohalokat (b.180), avtokach (b.181), avtokredit (b.181), avtomaktab (b.181), avtoturargoh (b.184), avtoulav (b.184), avtoxo'jalik (b.185), avtoyuklagich (b.185) kabi o'zlashma komponentli qo'shma so'zlar ham lug'atga kiritilgan. Audio-, avto-, avia- komponenti yordamida hosil qilingan so'zlar ham

tildagi tegishli leksik bo'shliqlarni nomlash ehtiyojidan yuzaga kelgan va ularni ham til ichki imkoniyatlari va qonuniyatlari doirasida adabiy tilda ommalashayotganligini e'tirof etish joiz. Qiyosiy o'rganishlar ko'rsatadiki, til ichki imkoniyatlari asosida so'nggi davrda paydo bo'layotgan kompozitsion yasalmalar miqdori va ularning leksikografik tavsiflari til taraqqiyotiga mos rivojlanish tendensiyasiga ega.

Xulosa va takliflar. Shuni alohida qayd etish kerakki, adabiy tildagi tegishli leksik bo'shliqni to'ldirish bilan bog'liq tadqiqot va o'rganishlar natijasida tavsiya etiladigan yangi so'zlarning ilmiy asoslanishi, tilshunoslar tomonidan ma'qullanishi ularning ommalashuvi hamda adabiy til leksikasida barqarorlashuviga katta ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur jarayonda mas media va OAVning ham faol ishtiroki va tashabbuskorligi tavsiya etiladigan so'zlarning til egalari orasida ommalashishiga katta imkoniyat yaratadi. Shu bois bu kabi ishlarda tavsiya etilgan birliklarni ilmiy jamoatchilik tomonidan muhokama qilish va ma'qullangan so'zlarning keng ommalashishini va qo'llanishini ta'minlash maqsadida ularni o'z vaqtida normativ lug'atlarga kiritish, OAV va yozma manbalarda keng istifoda etilishini ta'minlash lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. Til tilisimi tadqiqi. – Tashkent: Mumtoz so'z, 2017. – B. 178.
2. Оруджев А. А. Теоретическое обоснование к "Толковому словарю азербайджанского языка Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Баку, 1962.
3. Сковорцов Л. Взаимодействие литературного языка и социальных диалектов (на материале русской лексики послеоктябрьского периода): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1966.
4. Кайдаров А. Т. Уйгурские диалекты и диалектная основа литературного языка: Дисс... докт. филол. наук. – Баку, 1969.
5. Сат Ш. Формирование и развитие тувинского национального литературного языка. – Кызыл: Тувкнигоиздат, 1973.
6. Безносикова Л. М. Роль диалектной лексики в формировании словарного состава Коми литературного языка. – М.: Наука, 1985.
7. Ладисова О. Лексическая лакунарность диалекта (на материале словаря современного русского народного говора д. Деулино): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Красноярск, 2006.
8. Мусаева Ф. Лакуна ходисаси ва уни бартафат этишда шева лексикасининг аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти 2020. – Б. 97.
9. Hasanov A. Filling the lexical lacunas in uzbek language with dialectisms (on the example of agricultural vocabulary) // Scientific Bulletin of Namangan State University, no. 5. – 2021. – pp. 408-412.
10. Hasanov A. O'zbek tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish masalalari (so'nggi yuz yillik misolida) // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2023, 1-son 3(50). – B. 7-15.
11. Ҳожиёв А. А. Ўзбек тили сўз ясашиш тизими. – Т.: О'qituvchi, 2007. – B. 161.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. – Т.: G'afur G'ulom, 2022. – B. 340.
13. Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. – Т.: Nodirabegim, 2020. – Б. 17.
14. Lutfullayeva D., Tojiboyev B. Association of National and Cultural Units in Uzbek Language // ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 2018, 7(6). – pp. 49-59.
15. Majidovich A. Methods of filling the lexical gap using word derivation // Scienceweb academic papers collection, 2023.
16. Llach P.A. Lexical gap-filling mechanisms in foreign language writing // System, 2010, No.1, Vol. 4. – pp. 529-538.